

MAHMUDOVA Odina Obiddin qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1-kurs tayanch doktoranti
Odinamahmudova2610@gmail.com

XI-XII ASRLARDA XORAZMDAGI ADABIY HAYOT TAHLILI

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНОЙ ЖИЗНИ ХОРЕЗМА XI-XII ВЕКА

ANALYSIS OF THE LITERARY LIFE OF KHOREZM IN THE 11th– 12th CENTURIES

Annotatsiya: Mazkur maqolada XI-XII asr Xorazm hududidagi ilmiy va adabiy muhit hamda uning rivojlanish bosqichlari Mahmud Zamaxshariy yashagan davri misolida tahlil qilinadi. Unda Xorazmning Sharq Renessansidagi o'рни, Xorazmshohlar homiyligi, ilmiy markazlar shakllanishi hamda olim va adiblar merosi asosida davrning umumiy ilmiy manzarasi yoritiladi.

Kalit so'z va iboralar: Xorazm, Zamaxshariy, Sharq Renessansi, ilmiy muhit, adabiy muhit, Xorazmshohlar.

Аннотация: В данной статье анализируются научная и литературная среда Хорезма XII века, а также этапы её развития на примере эпохи Махмуда аз-Замахшари. Освещаются роль Хорезма в Восточном Ренессансе, покровительство Хорезмшахов развитию науки, формирование научных центров и общее научное наследие учёных и литераторов данного периода.

Ключевые слова: Хорезм, Замахшари, Восточный Ренессанс, научная среда, литературная среда, Хорезмшахи.

ANNOTATION: This article analyzes the scientific and literary environment of XI-XII century Khwarazm and its stages of development through the example of the era of Mahmud al-Zamakhshari. It highlights Khwarazm's role in the Eastern Renaissance, the patronage of the Khwarazmshahs, the formation of scholarly centers, and the overall intellectual heritage of scholars and literary figures of the period.

Key words: Khwarazm, al-Zamakhshari, Eastern Renaissance, scientific environment, literary environment, Khwarazmshahs.

KIRISH

Xorazm qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyoning eng yirik ilm-ma'rifat markazlaridan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallab kelgan. Ushbu hudud asrlar davomida ilm-fan, adabiyot va madaniyat taraqqiyotining muhim o'chog'i bo'lib, ko'plab buyuk allomalar, mutafakkirlar va ijodkorlarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan. Ayniqsa, XI–XII asrlar oralig'i Xorazm tarixida ilmiy va madaniy yuksalish davri sifatida alohida ajralib turadi.

Mazkur davrda hudud Somoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar kabi yirik siyosiy tuzilmalar tarkibida bo'lib, ularning ilm-fan va madaniyatga bo'lgan e'tibori natijasida ilmiy muhit izchil rivojlangan. Xususan, Saljuqiylar davrida Nizomulmulk tomonidan olib borilgan siyosat ilmiy-ma'rifiy muassasalarning kengayishiga xizmat qilgan bo'lsa, Xorazmshohlar davrida bu jarayon yanada yuqori bosqichga ko'tarilgan. Gurganj shahrining yirik ilmiy va madaniy markazga aylanishi, Ma'mun akademiyasining tashkil etilishi hamda turli hududlardan olimlarning jamlanishi bu holatning yorqin dalilidir.

Shu ilmiy-madaniy muhitda yetishib chiqqan buyuk allomalardan biri Mahmud Zamaxshariy bo'lib, u o'zining tafsir, tilshunoslik va adabiyot sohalaridagi chuqur ilmiy merosi bilan islom ilm-fani tarixida alohida o'rin egallaydi. Uning ilmiy faoliyati va merosini to'liq anglash uchun u yashagan davrning ilmiy va adabiy muhitini kompleks o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Xorazm 712-yil islom qo'shinlari tomonidan egallangandan so'ng, Zamaxshariy yashagan davrning oxirigacha ketma-ket uch davlat hukmronligi ostida bo'lgan. Bu davlatlarning birinchisi Somoniylar davlati bo'lib, 818–1005-yillar orasida Movarounnahr va Xuroson hududlarida hukmronlik qilgan [1:49].

Xorazm hududida 1037–1157-yillar oralig'ida hukmronlik qilgan ikkinchi davlat Saljuqiylar davlati bo'lgan. Saljuqiylar yurishlari natijasida 1043-yilda Xorazm hududlarini ham egallangan [2:677]. Zamaxshariy aynan Saljuqiylar

davrida yashab, ilm tahsilini ham shu davrda olgan.

Bu davrning mashhur davlat arbobi Nizomulmulk edi. U avval Alp Arslon, keyin esa Malikshoh davrida vazirlik qilgan. Nizomulmulkning sa'y-harakatlari natijasida hududda ilm-fan va adabiyot rivojlangan; madrasalar, kutubxonalar, shifoxonalar, karvonsaroylar va hammomlar qurilib, hudud obod etilgan[2:678].

Xorazm diyorining boy va qadimiy tarixi, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy muhiti haqida turli manbalarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Misol qilib, Yoqut al-Hamaviyning "Mo'jam al-Buldon", "Mo'jam al-Udabo", Alovuddin Ato Malik Juvayniyning "Tarix-i-Jahongusho", Ibn Fadlanning "Sayohatnoma", Shihobuddin al-Umariyning "Masalik al-Absar fi Mamalik al-Amsar", Rashiduddin Vatvotning "Ar-Rasoil", Ibn Xurdodbehning "Kitab al-Masolik va-l-Mamalik", Ibn Arabshohning "Ajaib al-Maqdur fi Navaib Timur", al-Muqaddasiyning "Ahsan at-Ta'qosim fi Ma'rifat al-Aqolim", al-Yaqubiyning "Kitab al-Buldon" kabi asarlarini keltirish mumkin.

Tarixchi olim Ato Malik Juvayniyning ta'kidlashicha, Xorazm og'ir kunlarni boshdan kechirishidan oldin nihoyatda go'zal va obod yurt bo'lgan. Bu yer hukmdorlar tomonidan poytaxt sifatida tanlangan, mashhur olimlarning mavjudligi bilan sharaflangan hamda ulug' shayxlar va hukmdorlarni bag'riga olgan diyor bo'lgan[3:25]. Yana bir tarixchi olim Ibn Arabshoh esa o'zining "Ajoib al-Maqdur fi Navaib Timur" nomli asarida Xorazm haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Xorazmning poytaxti Jurjon (Gurganj) hisoblanadi. Bu shahar mohir notiqlar, olimlar, zukko kishilar, shoirlar, ziyolilar to'plangan markazdir"[4:10]. Xorazm haqida yozgan yana bir muallif al-Muqaddasiy bo'lib u o'z asarida Xorazm xalqining ziyrakligi, fiqh va Qur'on ilmlarida yetakchi ekanini ta'kidlaydi[5:21].

Bu ma'lumotlar arab fathlaridan keyin, ayniqsa X–XII asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy va iqtisodiy holatni yaxshilanganidan dalolat beradi. Shaharlashuv jarayonining kuchayishi, aholining ko'payishi, savdoning rivojlanishi va saroylarning ko'payishi Xorazm hududining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalganini ko'rsatadi. Xususan, Ma'mun II davrida Gurganj

Sharq mintaqasining muhim markazlaridan biriga aylangan. Uning davrida savdo, hunarmandchilik, madaniyat va ilm-fan sohalarida katta yutuqlarga erishilgan. XI–XII asrlarda Gurganj buyuk Xorazm mamlakatining go'zal va ulug'vor poytaxti sifatida shuhrat qozongan[6:19].

Ma'mun poytaxt Gurganj shahrida ilmiy akademiya tashkil etgan va Islom olamining turli hududlaridan astronomlar, matematiklar hamda tabiblar bu yerga kelganlar. Mashhur matematik va shoir Umar Hayyom Ma'mun akademiyasining rasadxonasida faoliyat yuritish uchun Nishopur shahridan kelgan. Shuningdek, faylasuf va tabib Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy ham shu davrda Xorazmga kelib, bu yerda faoliyat olib borgan mashhur olimlardan biridir[6:20]. Bu esa Xorazm nafaqat mahalliy, balki jahon miqyosidagi ilmiy markaz sifatida e'tirof etilganini va bu yerda nafaqat xorazmlik olimlar, balki boshqa hududlarda tug'ilib, aynan shu ilmiy muhitda faoliyat olib borgan allomalar ham samarali ijod qilganligini ko'rsatadi. Bu Xorazm ilmiy muhitining ochiqligi, ko'p qirrali va integrativ xususiyatga ega bo'lganiga yorqin dalildir.

Qolaversa, Yoqut Hamaviy o'zining "Mo'jam al-Udabo" nomli asarida zamonasiga qadar yashab, ijod etgan ming nafardan oshiqroq Sharq adib va shoirlarining tarjimai holi va asarlaridan namunalar bergan. Shular qatorida xorazmlik o'n to'qqiz nafar adib va shoirning hayoti hamda ijodiy faoliyatiga alohida to'xtalib o'tgan. Ulardan biri Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy Abu Fazl bo'lib, Yoqut Hamaviy asarida as-Sahriyni Xorazmshoh saroyida xizmat qilgani, so'zga chechan va hozir-javoblikda tengsiz bo'lganini ta'kidlaydi. Uning Xorazmshoh Abu Abbos Ma'munga atab yozgan madhiyasi va Abul Fath al-Bustiy hamda as-Suhayliyga yozgan qasidasidan namunalar keltiradi[7:96].

Yana bir xorazmlik adib sifatida Ahmad ibn Muhammad al-Husayn as-Suhayliy al-Xorazmiyni keltiradi. Suhayliy Xorazmshoh Abu Abbos Ma'mun saroyida vazir bo'lgan. Yoqut Hamaviy uning "Ravzat as-Suhayliy fi avsof va-l-tashbihot" asarini keltiradi[7:102]. Ushbu ma'lumotlar Xorazmshohlar saroyida nafaqat davlat arboblari, balki adib va ziyolilar ham faoliyat yuritganini, ular orasidan hatto vazirlik darajasiga ko'tarilgan shaxslar ham yetishib chiqqanini ko'rsatadi.

Xuddi shunday ushbu asarda Mahmud Zamaxshariyning adabiyot sohasida ta'lim olgan ustozlari va shu sohada undan tahsil olgan talabalari haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Mahmud ibn Jarir ad-Dabbiy al-Isfaxoniy Abu Mudarr an-Nahviy Zamaxshariyning ustozlaridan biri bo'lib, Yoqut Hamaviy uni "Farid al-asr" ("Asrning yagonasi") deb ataydi[8-14]. Shogirdlaridan biri Ali ibn Muhammad al-Imroniy al-Xorazmiy bo'lib, "Mo'jam al-Udabo"da uni tilshunoslik bobida chuqur bilimdon, "Hujjat al-fozil" ("Fozillar tayanchi") va "Faxr al-mashoyix" ("Mashoyixlar faxri") nomi bilan tanilgan deb keltiriladi[9:412].

Ma'mun tomonidan tashkil etilgan ilmiy akademiyada chuqur bilim va balog'at mahorati bilan tanilgan Abu Mansur as-Saolibiy o'zining "Yatimat ad-Dahr" nomli asarida 470 nafar olim, shoir va adib haqida ma'lumot beradi. Ularning 104 nafari Markaziy Osiyodan bo'lib, Xorazmning ilm va adabiyot markazi sifatida shakllanishida muhim rol o'ynagan. Shulardan Xorazm vohasida yetishib chiqqan Abu Bakr Muhammad ibn Abbos al-Xorazmiy, Abu Said Ahmad ibn Shabib ash-Shabibiy, Abu Muhammad Abu Qosim ibn Zirgom kabi olimlar ham ko'rsatib o'tilgan[10:116].

As-Saolibiy bu hududning dunyo miqyosida tanilishida nafaqat olimlar, balki Xorazmshohlarning ham katta hissasi borligini ta'kidlaydi. Ma'mun ibn Muhammad kabi, uning o'g'illari Ali va Ma'mun ham "Xorazmshoh" unvonini qabul qilganlar[10:122]. Ularning Abu Sahl, Ibn Sino, Beruniy va Abdulmalik as-Saolibiy kabi buyuk olimlarni homiylik qilganlari sababli, bu hukmdorlar mazkur allomalar asarlarida doimo yuksak ehtirom bilan tilga olinadi.

Ma'mun ibn Muhammadning o'zi ham olim va shoir bo'lgan, uning ayrim arabcha she'rlari va hikmatli so'zlari bizgacha yetib kelgan. Beruniy esa Ma'mun ibn Ma'munning davlat ishlarida vazir yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritgan. [10:116]. Ana shunday Xorazmshohlardan bo'lgan Otsiz va Takash davrida yetishib chiqqan mashhur olimlardan biri ham Mahmud Zamaxshariy hisoblanadi.

Xorazmshoh Otsiz sa'y-harakatlari bilan Xorazmda ilm-fan rivoji uchun ko'plab ezgu va xayrli ishlar amalga oshirilgan. Alloma Mahmud Zamaxshariy Otsizning ilm egalariga ko'rsatgan

e'tibori uchun 1137 yillarda yozib tugallangan "Muqaddamat al-adab" asarini unga bag'ishlab yozadi. Mahmud Zamaxshariy aynan Otsiz davrida "Faxri Xorazm" unvoniga ega bo'ladi. Xorazmshoh Otsiz 1141 yili Marvni egallab olgandan so'ng u yerdan Abu Fazl Kirmoniy, Abu Mansur al-Abbodiy, qozi Husayn ibn Muhammad Arsabandiy, Abu Muhammad al-Harogiy kabi olim va faylasuflarni o'zi bilan Xorazmga olib ketadi[11:23]. Uning niyati Xorazm o'lkasini fan-madaniyat markaziga aylantirish edi. Otsiz ilm-fan, adab ahliga chuqur hurmat bilan e'tibor berar va ularni doim qo'llab-quvvatlar edi.

Xorazmda ilm-fanning rivojlanishida Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining ahamiyati nihoyatda katta. Allomaning yozgan asarlari va uning shaxsiyati orqali Xorazm o'lkasi yanada mashhur bo'ldi. Zamaxshariyning ilm olamida juda yuqori nufuzga ega ekani shubhasizdir. Allomaning yaratgan asarlari, ilm-fanga qo'shgan ulkan hissasi uchun uni hayotligidayoq mashhur unvonlar bilan atashgan. Zamaxshariy o'z zamondoshlari va shogirdlari chuqur ehtirom bilan "Ustoz ad-dunya" ("Butun dunyoning ustoz"), "Ustoz al-arab va-l-ajam" ("Arab va arab bo'lmaganlarning ustoz"), "Jorulloh" ("Allohning qo'shnisi") kabi unvonlar bilan ataganlar. Bundan tashqari alloma o'z asarlari qo'lyozmalarida, xususan, "Asos al-balog'a" ("Balog'at asoslari") asarida "Alloma", "Shayx al-arab va al-ajam" ("Arab va ajamlar shayxi"), "Sohib al-Kashshof" ("Kashshof" asarining muallifi), "Al-Unmuzaj" asarida "Ustoz az-zamon" ("Zamona ustoz"), "Farid al-asr va-l-avon" ("Asr (davr)ning yagonasi"), "shayx", "alloma", "Al-Kashshof" asarida "imom", "Toj al-islom" ("Islom dinining toji"), "Rabi' al-abror" asarida "Imom", "Alamul-alloma" ("Dunyo olimi"), "Faxr al-Xvarazm" ("Xorazm faxri"), "Shayx al-islom" ("Islom dinining shayxi") singari nomlar bilan ham atalgan[11:22].

Arab olimlarining Zamaxshariy ilmiy faoliyatiga katta ehtirom bilan qaraganliklari va bu holatni: "Arablar Movarounnahrni qurol bilan zabt eta olmadilar, ammo Xorazmlik bir olim o'z ilmiy salohiyatining chuqurligi bilan butun Arab olamini zabt etdi", degan ibora orqali ifoda etganliklari uning arab bo'lmaganiga qaramay, arab ilm-faniga qo'shgan hissasiga bo'lgan

yuksak hurmatni ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, mashhur rus sharqshunosi Ignatiy Yulianovich Krachkovskiy Zamaxshariyning til sohasidagi yuksak salohiyatini alohida ta'kidlab, uni go'yo arablar uchun vakil sifatida baholagan[12:313]. Bu esa Zamaxshariyning tilshunoslikdagi mahorati keng ilmiy doiralar tomonidan yuksak e'tirof etilganini ko'rsatadi

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tarixiy, siyosiy va ilmiy omillar Xorazmda XI–XII asrlarda shakllangan yuksak ilmiy-adabiy muhitni yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, Xorazmshohlar tomonidan ilm-fan va adabiyot ahliga ko'rsatilgan e'tibor, ilmiy markazlar va akademiyalarning tashkil etilishi, turli hududlardan kelgan olimlarning jamlanishi hamda boy ma'naviy muhitning mavjudligi ushbu o'lkaning ilmiy salohiyatini yanada yuksaltirgan.

Ana shunday qulay va sermahsul ilmiy muhit Mahmud Zamaxshariyning yetuk alloma sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Uning chuqur bilim egallashi, turli fan sohalarida yuksak natijalarga erishishi va islom ilm-fanida muhim o'rin egallashi aynan shu davrning ilmiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlari bilan bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Seyithanog'lu K. Buyuk Islam Tarihi. – Istanbul: Enser Neshriyat, 1992. – J.7. -620 b.
2. Bash A. Islam Tarihi. – Anqara: Grafiker Yayinlari, 2013. - 728 b.
3. Sesen R. Ibn Fadlan Seyahatname. – Istanbul: Yeditepe Yayınevi, 2017. - 187 b.
4. Ibn Arabshoh. Ajoib al-Maqdur fi Navaib Timur. – Qohira: Matbuat Vadiy an-Nil, 1868. - 260 b.
5. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. – Toshkent: Sharq bayozi, 1993. – 104 b.
6. Velidi Z. Horezm Kulturu Vesikalari. – Istanbul: Sucuog'lu Matbaasi, 1951.
7. Yoqut Hamaviy. Mo'jam al-Udabo. – Bayrut: Dor Ihyo at-Turos al-Arabiy, 2009. – J.2. – 328 b.
8. Yoqut Hamaviy. Mo'jam al-Udabo. – Bayrut: Dor Ihyo at-Turos al-Arabiy, 2009. – J.7. – 258 b.
9. Yoqut Hamaviy. Mo'jam al-Udabo. – Bayrut: Dor Ihyo at-Turos al-Arabiy, 2009. – J.5. – 357 b.

10. Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar Davlati. – Toshkent: Sharq, 1999. – 148 b.
11. To'rayev L. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida "Rabi' al-abror" asari muhim manba sifatida. Tar. fan. nom. ... dissertasiyasi. T.:2022. – 169 b.
12. Krachkovskiy I. Izbranniy Sochineniya. – Moskva: Izdatelstvo Akademii Nauk SSSR, 1957. – 919 b.